

MANZARALI O'SIMLIKLER TURLARI VA ULARNING LANDSHAFT DIZAYNIDAGI ROLI.

Anvarova M.

Muhammadowa Z.

Soliyeva N.

Annotatsiya. Manzarali o'simliklar shahar va qishloq hududlarining estetik qiyofasini shakllantirishda, mikroiklimni yaxshilashda, rekreatsion makonlar yaratishda va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda daraxt, buta, ko'p yillik va bir yillik manzarali o'simliklarning landshaft kompozitsiyalarida qo'llanish tamoyillari, ularning fazoviy tuzilish, rang uyg'unligi va mavsumiy dekorativligi orqali dizayn qiymati ochib berilgan.

Kirish. Manzarali bog'dorchilik san'ati tirik o'simlik materiallari bilan ishlaydigan, tabiiy elementlardan foydalanadigan, arxitektura bilan estetikaning bir butunligi jamlangan bilimlar yig'indisi bo'lib, uning asosida inson o'zi yashashi uchun qulay makon yaratadi. Yashillik shaharlar iqlimini yumshatadi, harorat va namlikni tartibga soladi, shovqin va shamol ta'sirini kamaytiradi, atmosferani chang va zaharli chiqindilardan, havoni mikroblardan tozalaydi, ionlar, smola va xushbo'y hidlar bilan boyitadi, fitonsidlar chiqazib, undagi zararli mikroorganizmlarni o'ldiradi, quyosh radiatsiyasi ta'sirini pasaytiradi, tuproqning haddan tashqari qizib ketishining oldini oladi.

Nazariy qism; O'zbekistonning iqlim sharoitida shahar va aholi yashaydigan manzillarni ko'kalamzorlashtirish obodonlashtirishning muhim shartlaridan biridir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yangi texnologiyalarga asoslangan keng ko'lamli qurilish ishlari olib borilishi barobarida ko'kalamzorlashtirish madaniyati ham shakllanmoqda. Yangi qurilayotgan inshootlar, zamonaviy uy-joylar va binolar atrofida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishish paytida asosiy e'tiborni ularning zamonaviy landshaft arxitekturasini talablari asosida ko'kalamzorlashtirilishiga qaratib, bunda zamonaviy bezaklar milliy an'analar bilan

uyg'unlashgan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Yurtimizda ko'kalamzorlashtirish va landshaft dizayn yaratish jarayonlarida mahalliy flora bilan bir qatorda chet mamlakatlardan introduksiya qilingan manzarali o'simliklar ham keng qo'llanilmoqda. Insonlarning estetik ehtiyoji, ekologik xavfsizlik va shahar muhitini sog'lomlashtirish maqsadida ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Havoni tabiiy ravishda tozalaydigan yagona vosita – bu yashil daraxtzorlardir.

Fotosintez jarayonida bir gektar yashil daraxtzor ajratgan kislorod 200 kishining bemalol nafas olishi uchun yetarli bo'ladi. Shuning bilan birga, ushbu jarayonda o'simlik har soatda 8 kg gacha uglekislota gazini yutadi. Yashil daraxtzorlarning havoni tozalash bo'yicha samaradorligi ularni muhandislik kommunikatsiyalariga mos holda va o'simliklarning bioekologik xususiyatlarini e'tiborga olib joylashtirilishi bilan bog'liq. Sanitariya maqsadida yashil daraxtzorlar barpo etilayotganda hududning shamol rejimi va uning xarakteri, atmosferaga tashlanayotgan chiqindilarning miqdori, yer sathidan balandligi, kimyoviy va fizikaviy tarkibini e'tiborga olish kerak. Ana shu omillar nuqtai-nazaridan daraxtzorlarning turlar tarkibi qatorlarning eni va daraxtlarning balandligi hamda ularning konstruksiyasiga asosan yaratiladi. Manzarali o'simliklar bioxilma-xilligi olimlar tadqiqotlariga ko'ra, o'simliklar qadim zamonlardan manzarali maqsadlarda qo'llanilgan bo'lib, lotos, atirgul, gulsavsar va xrizantemalardan insoniyat 4–6 ming yil avval foydalana boshlagan. Tarixiy manbalarda qadimiy yunon va hind landshaftlarida atirgullar alohida o'rin egallagani qayd etilgan. Bugungi kunda O'zbekiston hududida manzarali o'simliklarning xilma-xilligi juda keng. Farg'ona shahri va viloyatimizda ma'lumotlar bo'yicha 104 tur manzarali o'simliklar tarqalgan bo'lib, ular 87 turkum va 41 oilaga mansub. Ularni orasida eng katta oilalardan Rosaceae, Oleaceae, Faloceae va Salixaceae turkumlarga boylardan Acer, Morus va boshqalar. Shaharlarimiz va aholi yashaydigan joylarda hamon chinor, dub, jo'ka, gledichiya, tol, teraklar va boshqalar xukmron bo'lsa, hozirgi vaqtda esa kashtan, ipak akatsiya, qog'oz daraxti, katalpa, qarag'ayning turlari o'zlarini munosib o'rinlariga ega. Shaharlarimiz infrostrukturasida noyob va kamyob turlardan hisoblangan ginko-biloba, lola daraxti, kiparis kabilar uchraydi. Shuningdek,

manzarali butalar ham shaharlarimiz maydonlarini bezab turadi: tuya, biota, budleya, siren, kanna, yukka va boshqalar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, manzarali o'simliklarning orasida ko'plab dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan, efir moyli, gullari asal shiraga boy bo'gan turlarni ham uchratamiz. Yurtimiz shahar va viloyatlari hududlarining issiq va quruq iqlim sharoitida mavjud daraxt, butalardan jumladan, manzarali o'simliklardan iborat o'simliklar olamining ahamiyati katta.

Xulosa; Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar hududlarini ko'kalamzorlashtirish jarayonida o'simliklarning bioekologik xususiyatlarini, iqlim sharoitiga moslashuv darajasini hamda ularning estetik va sanitar-gigienik funksiyalarini ilmiy asosda hisobga olish zarur. Mahalliy flora vakillari bilan bir qatorda chet eldan introduksiya qilingan manzarali o'simlik turlarining oqilona uyg'unlashtirilishi shahar landshaftining ekologik barqarorligini ta'minlash, havo sifatini yaxshilash va antropogen omillarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan shaharlarida landshaft dizayni va ko'kalamzorlashtirish tizimini rivojlantirishda manzarali o'simliklarning ekologik, estetik va iqtisodiy ahamiyatini chuqur tahlil etish, ularni ilmiy jihatdan asoslangan tizim orqali tanlash va joylashtirish istiqboldagi eng dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi. Bu esa nafaqat shaharlarning ekologik muvozanatini mustahkamlash, balki aholining hayot sifati va estetik madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. A.X.O'roqov "Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish" O'quv qo'llanma. T. 2019.
2. V. Maxmudov, M. Akbarova, G'. Xamidov, M. Mahmudov, Z.N. Jo'rayev. "Farg'ona vodiysining manzarali o'simliklari" Farg'ona-2022
3. Kultiasov I.M., Oxunov X.M., "O'simliklar ekologiyasi". T.: 1990.
4. Muxamedjonov A., Berdiev E. Manzarali daraxt-buta o'simliklar tavsifi, ko'paytirish, parvarishlash, shakl berish) Toshkent, ToshDAU Tahririyat-nashriyot bo'limi, 2018.-84 b.

5. Qayumov A., Berdiyev E.T. Landshaftli qurilish–Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2016. 330 b.
6. Qayumov A., Dendrologiya (o‘quv qo‘llanma) –T: Ilm-ziyo 2007. -152 b
7. Qayimov A.Q. Berdiyev E.T., Hamroyev H.F., Turdiyev S.A. Dendrologia - Toshkent, - «Fan va texnologiyalar», 2015.-330 b.
- 8.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- 9.https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/14/NamDU-ARM-15121-Manzarali_osimliklar.pdf